

SHARQ PEDAGOGIKASIDA “XULQ-ATVOR” MASALASI HAQIDA

Z.Rizoqulov,

Osiyo xalqaro universiteti I kurs magistri

ANNOTATSIYA. Mazkur moqolada lug‘at qatlamimizdagi xulq-atvor so‘zi ma’no ifodalari, uning yondosh so‘zlarga munosabati, umumiy va matniy ma’no ifodalari yoritilgan. Shuningdek, Sharq donishmandlarining xulq-atvor, odob-axloq borasida aytgan fikr-mulohazalari tahlilga tortilgan, o‘rni-o‘rni bilan ayrim mulohazalar bildirib ketilgan.

KALIT SO‘ZLAR: odob-axloq mezonlari, xulq, xulq-atvor, adab, fazilat, illat, ilm, hikmat, ta’lim-tarbiya, rag‘bat, insoniy fazilatlar.

Sharq xalqlari uchun odob-axloq har bir zamon va har bir makonda o‘ta dolzarb masalalardan biri bo‘lib kelgan. Turli millat va xalqlar singari ota-bobolarimiz ham yosh avlodni hayotga tayyorlashda o‘z tajriba va bilimlariga, o‘zlariga mos urf-odat, an‘analariga tayanishgan. Xalqimiz muayyan bir ta’lim-tarbiya mezonlari, o‘quv adabiyotlari yaratilib ulgurilmagan bir davrda yoshlarni insoniy fazilarlarga – odob-axloq, mehnatsevarlik, jangovorlik, mardlik, halollik, insonparvarlik, mehribonlik, do‘slik, mehr-shafqat, olivjanoblik, aqi-idrok, sadoqat va vafoga o‘rgatishga bosh-qosh bo‘lishgan. Bu kabi fazilatlar insoniylikning bosh belgisi bo‘lib, Sharq xalqlarida juda qadimdan shakllangan va rivoj topgan[1,3]. Ularning ta’lim-tarbiya, xuq-atvor borasidagi fikrlari o‘z davrida ham, bugungi kunda ham inson hayoti, turmush tarzining ajralmas bir qismi bo‘lganligi bilan ulkan ahamiyat kasb etadi, deya olamiz. Donishmandlarning nodir, benazir pand-nasihatlari bugungi kun o‘quvchi-yoshlari, ularning kelajagi, hayot yo‘li uchun muhim manba bo‘lib xizmat qilmoqda.

Juda qadimgi ajdodlarimiz fikr-mulohazalari, haqiqatlari jamlangan “Avesto” asari eng qadimgi, noyob bilimlar xazinasi sanalsa, Mahmud Koshg‘ariy, Abu Nasr Farobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Imom Buxoriy, Mahmud Koshg‘ariy, Abu Homid G‘azzoliy, Yusuf Xos Hojib, Kaykovus, Jaloliddin Rumiy, Abulqosim Firdavsiy, Mahmud az-Zamahshariy, Ahmad Yassaviy, Sa’diy Sheroziy, Alisher Navoiy, Bobur, Bedil va boshqa allomalarimizning ilmiy-nazariy asarlari, ibratlari, teran ma’noli

“CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC INNOVATIVE RESEARCH”

Issue 1. January 2024

hikmatli so‘zlarida hayotiy haqiqatlar, purma’no nasihatlar, hayot falsafasi jam bo‘lganligiga amin bo‘lamiz. Ularning odob-axloq, xulq-atvor haqidagi fikr-mulohazalari har bir davrda ahamiyat kasb etgan.

“O‘zbek tilining izohli lug‘ati” [5] da xulq-atvor so‘zi doirasida “xulq”, “atvor”, “xulq-atvor”, “fe'l-atvor” kabilar qo‘llanishiga guvoh bo‘lamiz. Mazkur so‘zlar arab tilida o‘zlashga bo‘lib, izohli lug‘atda xulq so‘ziga “kishining muomala va ruhiy xususiyatlari majmuyi, fe'l-xarakteri”, atvor so‘ziga “yurish-turish, qiliq, fe'l, xatti-harakat”, xulq-atvor juft shakldagi so‘zga “fe'l-atvor, xarakter”, fe'l-atvor so‘ziga esa “shaxsnинг atrof-muhitga va o‘z-o‘ziga munosabatida namoyon bo‘ladigan, o‘zigagina xos xususiyat, xarakter” izohlar beriladi. Mazkur ma’no-ifodalar o‘zbek millatiga xos har bir kishi tafakkurida umumlashma voqelik tarzida namoyon bo‘ladi, aslida. Zero, xulq-atvor so‘zining pedagogik-psixologik yondashuv asosida yuzaga chiqarish mumkin bo‘lgan ma’no nozikliklari ham borki, tadqiqotchidan alohida kuzatishni talab etadi. Atvor so‘zi xulq so‘zidan ayro holda, ya’ni yakka holda kam qo‘llanib, odatda, bu so‘z o‘rnida axloq so‘zi qo‘llanadi. Xulq, axloq, odob (adab) so‘zları o‘zaro ma’nodosh[2,215]. “Axloq” xulq so‘zining arab tilidagi ko‘plik shakli sanaladi.

Umuman, xulq-atvor so‘zi lug‘aviy ma’nosiga ko‘ra pedagogik birlik sifatida shaxs tabiatiga xos ijobiy yoki salbiy xislatni anglatmaydi, betaraf ma’no ifodaga ega. Bu so‘z odamzodning holatidan, undagi odob-axloq, tarbiyadan kelib chiqib quyidagicha tasnif va tavsif etiladi: a) ijobiy xarakterdagi xulq-atvor; b) salbiy xarakterdagi xulq-atvor. Bu umumiyy pedagogikada, ma’naviy-ma’rifiy manbalarda “fazilat” va “illat” atamalari ostida ham talqin etiladi. “Fazilat” ijobiy xislat bo‘lib, yaxshi xulq, xususiyat sanalsa, “illat” me’yoriylikni buzuvchi salbiy hodisa, qusur, kamchilik hisoblanadi [5,194].

Keyingi masala xulq-atvorning shakllanish masalasidir. Bilamizki, bu insoniy tuyg‘ular, yaxshi-yomon xarakterlar individda ona qornidayoq shakllana boshlaydi. Bu borada keng va chuqur fanniy qarashlar mavjud [4]. Xulq-atvorning tadrijiy rivoji esa bola dunyoga kelgach o‘z oilasi, mahallasi, ta-lim-tarbiya muassasalari bilan bog‘liq holda kechadi. Fazilat va illatning xulq-atvor belgisi sifatidagi u yoki bu darajadagi ko‘rinishi bevosita va bilvosita oila, mahalla, o‘quv muassasasi bilan uyg‘un bog‘liq.

Insoniy tuyg‘ular – yaxshi va yomon xulq-atvorlar, ularning ko‘rinishlari, ijobiy va salbiy jihatlari haqida Sharq mutafakkirlarining ko‘pdan ko‘p o‘gitlari borki, ular hech bir davrda eskirmaydi. Masalan, eng qadimgi ma’rifiy qarashlar jamlangan “Avesto”

“CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC INNOVATIVE RESEARCH”

Issue 1. January 2024

asari zardushtiylik¹ dinining muqaddas kitobi bo‘lib, unda axloq me’yorlari hayot mezoni deb qaraladi va bashariyatga yaxshi ish, yaxshi xulq va yaxshi amal olamni ham, odamni ham bezaydi, deb tushuntiriladi. “Avesto”da inson fikri, so‘zi va ishi bilan go‘zaldir, degan g‘oya asosiy shior bo‘lib gavdalanadi. Zardusht nazariyasida “so‘z – yaxshi fikr va ezgu amal ifodasidir”. “Avesto” xulq-atvorlar yoritib berilgan manba hamdir. Zardushtiylik ta’limoti bo‘yicha tinch mehnat, insonning yaratuvchanlik va buniyodkorligi ezgu xulq-atvor bo‘lib, barcha noplak kuchlarni quvadi, faqat mehnat, oliyjanob amallar orqali nur va shodlik olamini ko‘paytirish, faqat mehnat tufayli haqiqat, tinchlik, davlatga erishish mumkin.

O‘rtalarda Sharqda o‘nlab buyuk donishmandlar yashab, ijod qildi. Ularning mehnati evaziga yuzlab kitoblar dunyo yuzini ko‘rdi. Shulardan biri – Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘otit turk” asaridir. Asar lug‘at deb atalsa-da, lekin unda o‘sha davrdagi va ungacha bo‘lgan ilmiy-adabiy parchalar, xalq ijodi, maqollar, hikmatli so‘zlardan ibratlar keltirilgan. Asarda ilm-fan, ta’lim-tarbiya, bir so‘z bilan aytganda, xulq-atvorga oid fikrlar ham bor. Ular yoshlarga nasihat-o‘git tarzida berilgan. Shunday parchalarning biri: “Ilm-hikmat o‘rgan, o‘rganishda havoyilik qilma, hech narsa o‘rganmasdan o‘zini bilimdon ko‘rsatib maqtangan kishi – imtihon vaqtida uyaladi, achinadi”[3,253]. Adib yoshlarni bilim, hunar egallash uchun sa’y-harakat qilishi lozimligini uqtiradi. Asarning yana bir o‘rnida kelajak avlodga qarata: “Ilmli, aqli kishilarga yaxshilik qilib, so‘zlarini tingla, ilmlarini, hunarlarini o‘rganib, amalga oshir... O‘g‘lim, o‘git-kengashimni qulog‘ingga ol, bilimsizlikni tashla. Kimning talqoni bo‘lsa, shinniga qoradi. Shuningdek, aqli odam nasihatni qabul qiladi” [3,255].

Ma’lumki, buyuk mutafakkir Alisher Navoiy ijodining asl mohiyati xulq-atvor, ta’lim-tarbiya bilan uzviy bog‘liqdir. Shoир asarlarining tub mohiyatida inson va uning baxt-saodati turadi. Bunda xulqning ahamiyati yuksak ekanligi ta’kidlanadi. Navoiy fikricha, odamzod dunyoda hamma narsadan yuksak, sharif, aziz va qadrlidir. Navoiy o‘z asrlarida inson haq-huquqlari, qadr-qimmati uchun kurash olib boradi. Buning uchun Ollohning har bir bandasi, avvalo, sharafli inson nomiga sazovor bo‘lishga harakat qilishi lozimligini uqtiradi. Bu maqsadga erishishda ta’lim-tarbiya muhim o‘rin tutishini qayta-qayta ta’kidlaydi.

¹ Zardusht Sharq faylasuflaridan biri bo‘lib, er.av. VII asrda Xorazmda yashab o’tgan. O‘z davri chorvador xalqlarning dini, urf-odatlari, an’analarini o‘rgangan, din peshvolari suhbatida ishtirot etgan. Ko‘p xudolilikdan yakka xudolilik (Axuramazda) ni targ‘ib qilgan.

“CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC INNOVATIVE RESEARCH”

Issue 1. January 2024

Buyuk mutafakkir “Mahbub-ul qulub” asarida odob haqida shunday deydi:

“Adab kichik yoshdagilarni ulug‘lar duosiga sazovor etadi va duo barakati bilan umrdan bahramand qiladi. Adab kichkinalar mehrini ulug‘lar ko‘ngliga soladi,...yoshlarni ko‘zga ulug‘ ko‘rsatadi, ularning yurish-turishini xalq ulug‘vor biladi: odamlar tomonidan bo‘ladigan hurmatsizlik eshigini berkitadi, bog‘laydi va kishini hazil-mazaxdan, kamsitishdan saqlaydi...”

Adabdan muhabbatga bezak va pardoz beradi, adab tarkidin do‘stlikning ravnaq va bahosi ketadi. Adab va tavoze do‘stlik ko‘zgusini yarqiratadi, ikki tomondan yorug‘lik yetkazadi”[1,57].

Alisher Navoiy kishilarni muloyim, yoqimli, nafosatli, madaniyatli, xushmuomala bo‘lishga da’vat etadi. Ayni vaqtida o‘zлari ham bunga amal qiladilar. “Mahbub-ul qulub” asarida Navoiy „...Yoqimlilik, xushmuomalalik inson gavdasining mevali bog‘idir. Odamgarchilik olamning toshlik javohirlilik tog‘i, muloyimlikni hodisalar daryosida kishilik kemasining langari desa bo‘ladi va insoniylik mezonining toshiga nisbat bersa bo‘ladi“, deya so‘z qotadi.

Navoiy tamagirlikni qattiq qoralaydi, bu illatdan xoli kishilarni sharaflı odamlar deb biladi. Bu borada u o‘ziga xitob qiladi:

Ey Navoiy, olam ahlida tamasiz yo‘q kishi,

Har kishida bu sifat yo‘qdur, anga bo‘lg‘ay sharaf.

Umuman, Alisher Navoiy asarlari yoshlar xulq-atvori, odobiga bag‘ishlangan cheksiz bir ummon bo‘lib, aytganlarimiz mazkur ummondan kichik bir zarradir. Uning asarlari yoshlarni to‘g‘ri yo‘lga boshlashda, ularga mehnatsevarlik, halollik, to‘g‘rilik, poklik, ilm-ma’rifat, ma’nafiyat, do‘stlik va oliyanoblikni o‘rgatishda benazir maslahatlar bera oladigan eng yaqin do‘st sanaladi.

Bir so‘z bilan ayganda, ulug‘ donishmandlarimizning ta’lim-tarbiya haqidagi e’tiroflari, shuningdek, ularning hayot yo‘li yoshlar xulq-atvori uchun muhim ahamiyatga ega bo‘lib, Sharq xalqlarining, xususan, o‘zbek pedagogikasining uzviy tarkibiy qismi sanaladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Asadov T. Sharq donishmandlari ta’lim-tarbiya haqida. –Buxoro, ”Durdona”, 2020.
2. Ҳожиев А. Ўзбек тили синонимларининг изоҳли луғати. –Т.:”Ўқитувчи”, 1974.
3. Махмуд К. Девон-у луғотит турк. 1-китоб. –Т., 1960.
4. Зуннунов А. Ўзбек педагогикаси тарихи. –Т.:”Ўқитувчи”, 1997.

Ў